

XALQARO HUQUQ NORMALARINI MILLIY SUDLARDA QO'LLASHNING**DOLZARB MASALALARI****Sharipov Elbrus Qarshi o'g'li**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqola Xalqaro huquq normalarini milliy sudlarda qo'llash masalalarini O'zbekiston Respublikasidagi amaliyoti haqida.

Kalit so'zlar: Xalqaro huquqiy normalar, Yangi O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi, Birtashgan Millatlar Tashkiloti, Milliy tadqiqotlar.

IMPORTANT ISSUES OF APPLYING NORMS OF INTERNATIONAL LAW IN NATIONAL COURTS**Sharipov Elbrus Qarshi O'g'li**

University World Economy And Diplomacy, Faculty International Law,

Master Of International Law Faculty

Annotation

This article describes the practice of applying the norms of international law in national court in the Republic of Uzbekistan

Keywords: norm of international law, new strategy of new Uzbekiston, United Nations, national research.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi davlatlararo xalqaro iqtisodiy va savdo aloqalarining kengayishida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi, barqarorlashuvi va xalq farovonligini oshishida muhim ahamiyatga ega. Tashqi savdo aloqalarining rivojlanishi va davlatlararo integratsiyalashuv jarayonining jadallashuvi davlatimiz iqtisodiyotining investitsiyalarning jalb etilishida namoyon bo'lib, davlatlarga huquqiy hamkorlik zaruriyatini keltirib chiqaradi. Huquqiy hamkorlikning asosiy elementlaridan biri xalqaro huquq normalarini milliy sudlarda qo'llash bo'lib, ushbu jarayon sud hujjatlarining boshqa davlatlar hududida milliy sud qarorlari kabi so'zsiz ijro etilishini namoyon bo'ladi. Ekshududiy sud yurisdiksiyasini amalga oshirish davlatlarning muayan huquqlardan o'zaro cheklanishini

nazarda tutib, ushbu qoida milliy qonunchilik hujjatlari, xalqaro shartnomalar, huquqiy yordam to'g'risidagi davlatlararo shartnomalarda mustahkamlanadi.

Ta'kidlash jozki, odil sudlov nafaqat davlatlarning ichki yurisdiksiyasi, balki xalqaro hodisa sifatida gavdalanib, umumiy maqsadlarga erishish yo'lida barcha davlatlarning hamkorlik qilishi va ishtirok etishi talab etiladi. Jahon hamjamiyatining ajralmas qismi bo'lmish mazkur jarayonlarda ishtirok etish O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Xalqaro huquq normalarini milliy sudlarda qo'llash xalqaro hamkorlarning O'zbekistonning tadbirkorlik sub'ektlari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslariga bo'lgan ishonch darjasini oshirib, davlatimiz xalqaro hamkorligi hajmini oshirish, investitsiyalarni jalb etish, davlatlararo munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda milliy hamda g'arb doktrinasi, sud amaliyotining tahlili asosida Xalqaro huquq normalarini qo'llanilish masalalarining o'rganilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zga chiqqan mamlakatimiz O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanishi va masalalarning dolzarbligi xamda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish kabi maqsadlarni amalga oshirishga sodiqligini alohida ta'kidladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, umume'tirof etilgan tamoyillar va xalqaro huquqning ajralmas qismi bo'lib kelgan xalqaro mezonlar va ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro huquqiy normalarni amalga oshirish, xususan fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi xalqaro huquqiy tajribalar 2016-yil oktabr oyidan boshlab O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining yangi dasturiga qo'llanila boshlangan.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlanishining besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xaraqatlar strategiyasi nazarda tutilgan mazkur islohot dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, protsessual qonunchilikni xalqaro hisobga olgan holda takomillashtirish standartlar va ilg'or xorijiy tajribalar ustuvor yo'nalishlaridan biri e'tib tayinlandi. Ushbu islohotlar sud-huquq tizimidagi sobiq sovet tuzumidan qolgan ba'zi jarayonlardan butunlay ildiziga bolta urdik desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xususan sudyalalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sudbyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish, sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessida tomonlarining tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;, «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish, sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash, sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi jarayonlar belgilandi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son asosida imzolangan O'zbekiston Respublikasining 2022 — 2026 yillarga

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi ham sud-huquq tizimi rivojlantirishda yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan ushbu Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 2 yo'nalishi Adolat va Qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish deb nomlangan. Ushbu yo'nalishda 15 maqsadining 2 bandida Xabeas korpus» institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish kerakligi belgilangan. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizning milliy sudlarida qo'llanilayotgan xalqaro huquq normalarining qo'llash kerakligini yana bir bor isbotladi.

Xulosa. Bugungi kunda milliy sudlarda xalqaro huquq normalarini milliy sudlarda qo'llash masalalari Yangi O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida xam, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenum qarorlarida ham eng mo'him masalar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu Xalqaro huquq normalarini milliy sudlarimizda qo'llash amaliyoti Xalqaro Tashkilotlar tomonidan ham alohida e'tirof etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekistonda davlatni birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Mirziyoev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib–intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b
3. Асосков А.В. Основы коллизионного права. – М.: Инфотропик Медия, 2012. – 352 с
4. Куликова Д.С. Основные концепции, лежащие в основе института признания и приведения в исполнение судебных решений зарубежных стран. Вестник РГГУ. Серия “Экономика. Управление. Право”. 2014. С.145–152